Iqtisodchi olimlardan V. Yankovskaya o'zining "Korxonalarda rejalashtirish" darsligida rejalashtirishni maqsadlarni belgilash, vositalarni aniqlash, ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish va ularga erishish yo'llarini belgilash jarayoni sifatida izohlaydi. V. Yankovskayaning fikricha: "Moliyaviy rejalashtirish jarayoni — bu murakkablik, motivatsiya, prognozlash, xavfsizlik, muvofiqlashtirish, nazorat qilish va o'qitishga yo'naltirilgan tizimli boshqaruv funksiyasi bo'lib, moliyaviy rejalashtirish — moliyaviy resurslar va pul oqimlarini tashkil etish bo'yicha kelajakdagi harakatlarni aniqlash jarayonidir" [7].

Kazmina I.V., Smolyaninova I.V. va Shchegoleva T. fikriga ko'ra, korporativ moliyaviy rejalashtirish — bu barcha faoliyatni ichki va tashqi muhit tomonidan shakllantirilgan moliyaviy imkoniyatlar va cheklovlarga moslashtirish orqali tashkilotning barqaror ishlashini ta'minlash jarayonidir [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot uchun ma'lumotlar ilmiy maqolalar, monografiyalar, iqtisodiy hisobotlar va rasmiy statistik manbalardan olindi. Olingan ma'lumotlar tizimli yondashuv asosida qayta ishlanib, qiyosiy va mantiqiy tahlil usullari qo'llandi. Shuningdek, mavjud nazariy qarashlar va amaliy tajribalar umumlantirilib, moliyaviy rejalashtirishning ilmiy asoslari aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy rejalashtirish korxonada faoliyatini samarali boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganadigan muhim iqtisodiy-kontseptual jarayondir. Ilmiy adabiyotlarda moliyaviy rejalashtirishning asosiy vazifalari quyidagilar sifatida ko'rsatiladi: resurslarni samarali taqsimlash, moliyaviy risklarni boshqarish, korxonada daromadlari va xarajatlarini prognoz qilish, shuningdek, strategik maqsadlar sari yo'naltirish.



Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda moliyaviy rejalashtirish nafaqat hisob-kitob va byudjetlashtirish bilan cheklanmaydi, balki quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

Strategik va taktik rejalashtirish – uzoq muddatli maqsadlar bilan yillik byudjet rejalari ni uyg'unlashtirish.

Raqamli texnologiyalar va ERP tizimlari – moliyaviy ma'lumotlarni real vaqt rejimida boshqarish, prognoz va moliyaviy modellashtirish.

Risk-menejment – moliyaviy, bozor, valyuta va boshqa xatarlarni oldindan aniqlash va boshqarish.

Barqarorlik va ESG tamoyillari – ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv masalalarini moliyaviy rejaga integratsiya qilish.

Xalqaro standartlar va ochiqlik – IFRS yoki GAAP asosida moliyaviy hisobot yuritish, investor va kreditorlar uchun ochiqlikni ta'minlash.

Innovatsiya va R&D integratsiyasi – tadqiqot va rivojlanish xarajatlarini moliyaviy rejaga kiritish orqali raqobatbardoshlikni oshirish.

Ilmiy tahlil shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda moliyaviy rejalashtirishning samaradorligi nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan, balki strategik va ijtimoiy jihatlar bilan ham belgilanadi. Bu esa korxonalariga uzoq muddatli barqaror rivojlanishga erishish imkonini beradi.

Ilmiy tadqiqot metodologiyasiga ko'ra, o'rganilayotgan kategoriya yoki munosabatlarning mohiyatini to'g'ri tadqiq qilish, uning mazmunini kengroq tushunish va tushuntirish uchun bu kategoriya va munosabatlarning boshqalar tomonidan tadqiq qilinish darajasini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi. Chunki boshqalarning tadqiqotlarida bu masalalariga bo'lgan ilmiy yondashuvni tahlil qilish asosida mualliflik yondashuvlarini shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Umuman olganda, biz tadqiq qilayotgan korxonalarda moliyaviy rejalashtirish masalasi yillar davomida ko'plab olimlar tomonidan ilmiy jihatdan tadqiq etilib kelinmoqda. Ularni ilmiy tahlil qilishda uch xil darajada yondashamiz: avvalo xorijiy (MDH davlatlaridan tashqari) olimlarning ilmiy ishlarini tahlil qilamiz, keyin MDH davlatlaridagi ayrim olimlarning ilmiy ishlarini o'rganamiz va uchinchi bosqichda o'zimizning mahalliy olimlarimizning ilmiy tadqiqotlarini tahlil qilamiz. Shundan so'ng umumiy tahlil asosida mualliflik ilmiy yondashuvlarimizni ishlab chiqamiz.

Moliyaviy rejalashtirish masalasi bo'yicha MDH davlatlaridagi ayrim olimlarning ilmiy ishlarini tahlil qiladigan bo'lsak, bu borada Bondarenko T.G. va A.U. Soltaxanovlarning ilmiy tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning fikriga ko'ra: "Zamonaviy iqtisodiyotda moliyaviy rejalashtirish moliyaviy boshqaruvning asosiy elementidir. Bu biznesni xavf va noaniqlikdan himoya qilishga yordam beradigan kompaniya boshqaruvining umumiy mexanizmining bir qismidir".

Mualliflarning ta'kidlashicha, rejalashtirish jarayonlari ko'pincha amaliy qiyinchiliklarga duch keladi: universal tizim mavjud emas, har bir tashkilot o'ziga xos cheklovlarga (me'yoriy talablar, xodimlar, texnik sharoit va boshqalar) duch keladi. Shuningdek, Bondarenko va Soltaxanovlar moliyaviy rejalashtirishning maqsadlari, daromadlari va xarajatlari, hisoblash-analitik apparatidan foydalanish, uzoq muddatli rejalashtirishda prognozlashning dolzarbligini ta'kidlashadi. Ular amaliy usullarni ham ajratib ko'rsatadilar, masalan: sotish prognozi, pul oqimlari balansi, kapital qo'yilmalar byudjeti, sotish ulushi va zararsizlik nuqtasini hisoblash, shuningdek, SWOT-tahlilni strategik qarorlar uchun asos sifatida qo'llash. Bu esa kuchli va zaif tomonlarni baholash orqali ishlab chiqarish hajmi va assortimentini aniqlash imkonini beradi.

Bondarenko va Soltaxanov moliyaviy rejalashtirishni kompleks, bosqichma-bosqich va moslashuvchan boshqaruv vositasi sifatida ko'radilar. Ular uning funksional jihatlarini (prognoz, hisob-kitoblar, monitoring), uslubiy tuzilmasi va har bir tashkilotning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydilar. Eng muhimi, ular tizimlilikka urg'u beradilar: tahlil, prognozlash, matematik hisob-kitoblar, xavflarni baholash va hujjatli ro'yxatga olish kombinatsiyasi moliyaviy rejalashtirishning tamoyillari sifatida keltiriladi.

Fikrimizcha, Bondarenko va Soltaxanovlar tomonidan berilgan moliyaviy rejalashtirish ta'rifi nisbatan to'g'ri bo'lsa-da, korxonaning moliyaviy boshqaruvdagi o'rni yetarlicha ochib berilmagan. Shunga qaramay, ularning moliyaviy rejalashtirish tamoyillari haqidagi qarashlari ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy rejalashtirish xususidagi olimlardan yana biri S.P. Visharning ilmiy tadqiqotlari ham ilmiy ahamiyatga egadir. S.P. Vishap moliyaviy rejalashtirishni boshqaruv tizimining bir qismi sifatida qaraydi va "Moliyaviy rejalashtirish umumiy moliyaviy boshqaruv tizimining ajralmas qismi bo'lib, u o'z navbatida korxonaning umumiy boshqaruv tizimining asosiy elementi hisoblanadi, bu rejalashtirish umumiy strategiyadan tashqarida mavjud emas" mazmundagi ta'rifni keltiradi¹.

S.P. Vishap moliyaviy rejalashtirishning ikkita o'zaro bog'liq darajasini belgilaydi. Ya'ni, umumiy iqtisodiy – firma darajasi bozor nazariyasi nuqtai nazaridan yondoshadi. Uning fikricha, boshqaruv – tashkilotni prognozlash va rivojlantirishga qaratilgan boshqaruvning asosiy funksiyasidir. U shuningdek, rejalashtirish

1 Вишар С. П. Современные проблемы финансового планирования предприятий системы потребительской кооперации в России // Символ науки. 2016. № 6. С. 160-163.



turlari va tartiblari sifatida uchta darajani aniqlaydi: birinchisi – operatsion (kassa rejasi, to'lov taqvim), ikkinchisi – joriy (daromad/xarajat rejalar, balans rejasi) va uchinchi – strategik (foйда va balans prognozi).

S.P. Visharning ilmiy yondoshuviga ko'ra, moliyaviy rejalashtirish jarayoni quyidagilarni qamrab oladi: axborot tahlili, prognozlash, davrlashtirish, metodologiyani tanlash, hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirish monitoringi. Uning so'zlariga ko'ra, moliyaviy rejalashtirish birinchidan istiqbolli bo'lishi kerak, ya'ni sotish prognozlari asosida aniq strategiya ishlab chiqilishi lozim. Ikkinchidan, u dinamik xarakterga ega bo'lishi kerak (iste'molchilar ehtiyojlarining o'zgarishini hisobga olgan holda amalga oshiriladi). Uchinchidan, axborotga asoslangan bo'lishi kerak. To'rtinchidan, iqtisodiy va matematik jihatdan asosli bo'lishi lozim. Beshinchidan esa, risklarni boshqarish va kompaniyaning strategik hujjatlari bilan bog'liq bo'lishi talab etiladi.

Bundan tashqari, S.P. Vishap qiyin makroiqtisodiy sharoitlarda xarajat moddalarini tartiblashni taklif qiladi: birinchi navbatda ish haqi, keyin modernizatsiya, to'lovlar va boshqa xarajatlari. Bu rejalashtirishda moslashuvchanlik va nazoratni muhim deb hisoblaydi. Uning fikricha, zamonaviy moliyaviy rejalashtirish – bozor va risklar bilan bog'langan, strategik integratsiyalashgan, prognozga yo'naltirilgan, ko'p bosqichli vosita bo'lib, mavjud vaziyat diagnostikasi va iste'molchi tahliliga, turli ufoqlarda daromad prognozlariga (qisqa, o'рта va uzoq muddatli), moliyaviy foydalanishning ustuvor va moslashuvchan modeliga, iqtisodiy hamda matematik asoslangan xabardorlik va modellarga tayanadi va doimiy monitoring hamda tashqi o'zgarishlarni hisobga olish orqali natijalar beradi.

Albatta, S.P. Visharning moliyaviy rejalashtirishga oid ilmiy tadqiqotlari salmoqli hisoblanadi. Garchi uning ta'rifi to'liq mukammal bo'lmas-da, moliyaviy rejalashtirishni amalga oshirish va natijalarga qo'ygan talablari katta ilmiy ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

Moliyaviy rejalashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan MDH davlatlari olimlaridan S. Demin, A. Zinchenko va M. Cherkasovlarning mashinasozlik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini moliyaviy rejalashtirish xususiyatlariga oid tadqiqotlari ham anchayin ilmiy ahamiyatga ega. Ular moliyaviy rejalashtirishni qat'iy tuzilgan, strategik yo'naltirilgan va barqaror moslashuvchan jarayon sifatida ko'rishadi. Shuningdek, mavjud imkoniyatlar va muhitni tahlil qilishga, ehtiyojlar va xavflarni bashorat qilishga, kompleks moliyaviy rejani tuzishga (daromadlar, xarajatlari, mablag'lar manbalari, pul oqimlari), bosqichlar bo'yicha taqsimlash va bajarilishini nazorat qilishga, resurslarni vakolatli ustuvor taqsimlashga, xavflarni baholash va o'zgarishlarga moslashish bilan integratsiyalashga alohida e'tibor qaratish lozim deb hisoblaydilar.

Shuningdek, ularning ilmiy yondoshuviga ko'ra, mashinasozlik korxonalarining barqarorligi va samaradorligini ta'minlash, rentabellik, likvidlik va risklar o'rtasida muvozanatni o'rnatish muhim masaladir. Moliyaviy rejalashtirish ishlab chiqarish jarayonlarini budjetlashtirish samaradorligining asosiy mezonini hamda barqarorlik o'lchovi sifatida xizmat qiladi. Ularning fikricha, moliyaviy reja quyidagi prognozlarni o'z ichiga olishi lozim: pul oqimlari (tushumlar va xarajatlari), balans, korxonada daromadi (daromad/zarar), moliyalashtirish manbalari (qisqa muddatli va uzoq muddatli). Bundan tashqari, S. Demin, A. Zinchenko va M. Cherkasovlar mashinasozlik korxonalarini uchun tegishli moliyaviy taqsimot tizimini isloh qilish algoritmini ham taklif etadilar².

Darhaqiqat, boshqa tarmoqlar singari mashinasozlik korxonalarida ham moliyaviy rejalashtirish korxonada moliyaviy boshqaruvida muhim rol o'ynaydi. Boshqa tomondan, mashinasozlik tarmog'ida xarajatlarning yuqoriligi, mahsulot tannaxida yalpi qo'shilgan qiymatning katta ulushi va ishlab chiqarishga yo'naltirilgan xarajatlarni to'g'ri rejalashtirish zarurati moliyaviy rejalashtirishni o'ta muhim ahamiyatga ega qiladi. A. Zinchenko va M. Cherkasovlarning ilmiy yondoshuvlari moliyaviy rejalashtirishning aniq bosqichlarida nimalarga e'tibor berilishi borasida yetarlicha mukammal bo'lmas-da, ular mashinasozlik korxonalarini uchun tegishli moliyaviy taqsimot tizimini isloh qilish algoritmini taklif qilgani bilan o'ziga xos ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy rejalashtirish borasida olimlar I. Zaysevaning ilmiy tadqiqotlari ham muhimdir. U moliyaviy rejalashtirishning strategik ahamiyatini ta'kidlab, quyidagicha fikr bildiradi: "Bu shunchaki budjet hisobi emas, balki pul oqimlarini boshqarish, qarzlarni to'lash va korporatsiyaning moliyaviy siyosatini strategik shakllantiradigan qarorlar qabul qilishning kalitidir. Bu keng qamrovli, kelajakka yo'naltirilgan va moslashuvchan reja bo'lib, tashqi qiyinchiliklarga chidamli tizimni yaratadi"³.

I. Zaysevaning fikricha, yuqori samarali moliyaviy rejalashtirish uchun pul oqimlarini boshqarishga e'tibor qaratish, uni uzoq muddatli va dinamik jarayon sifatida qurish, korporatsiyaning moliyaviy strategiyasi uchun asos yaratish, analitik va amaliy usullarni hamda rejalar bajarilishi ustidan nazoratni birlashtirish lozim. Moliyaviy rejalashtirish birinchi navbatda naqd pul resurslariga — mavjud va kelajakdagi, jumladan kreditorlik majburiyatlari va kutilayotgan foydaga qaratilgan bo'lishi kerak. Shu bilan birga, I. Zayseva retrospektiv (orqaga

2 Демин С. С., Зинченко А. С., Черкасов М. Н. Особенности финансового планирования производственных процессов на предприятиях машиностроения // Вестник университета. 2016. № 5. С. 130-132.

3 Зайцева И.С. Роль финансового планирования в формировании финансовой политики корпорации // Политика, экономика и инновации. 2016. № 8 (10). С. 1-4.



qarab) rejalashtirishdan ogohlantiradi. Uning fikricha, faqat o'tgan natijalar va an'anaviy budjet usullariga tayanish samaradorlikni pasaytiradi. Asosiy e'tibor daromadlar, xarajatlar, moliyalashtirish manbalari, jumladan qarz majburiyatlarini aks ettiruvchi moliyaviy rejaga qaratilishi kerak.

Moliyaviy rejalashtirish borasida keng ilmiy izlanishlar olib borgan olim O. Laenkoning tadqiqotlarida rejalashtirish va prognozlash o'rtasidagi farq aniq belgilangan. Unga ko'ra, rejalashtirish — resurslarni shakllantirish va taqsimlashga qaratilgan boshqaruv faoliyati, prognozlash esa — ixtisoslashtirilgan usullar yordamida kelajakdagi moliyaviy ko'rsatkichlarni baholashdir.

O. Laenko moliyaviy rejalashtirish usullari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi: iqtisodiy tahlil usuli — haqiqiy va rejalashtirilgan ma'lumotlarni taqqoslash, og'ishlarni aniqlash va tuzatish choralarini ishlab chiqish; nisbiy usul — asosiy moliyaviy koeffitsiyentlar asosida ehtiyojlarni hisoblash; normativ usul — oldindan belgilangan standartlar asosida resurslarni aniqlash; balans usuli — balans orqali ehtiyojlar va mavjud resurslarni solishtirish; diskontlangan pul oqimi usuli — pulning vaqt qiymatini hisobga olib strategik qarorlarni baholash; ko'p variantli (stsenariy) usul — bir nechta strategik variantlarni ishlab chiqish va qiyosiy tahlil qilish⁴.

Bundan tashqari, O. Laenko iqtisodiy va matematik modellashtirishni rejalashtirishda alohida ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Uning fikricha, moliyaviy prognozlashni amalga oshirish moliyaviy rejalashtirishni to'g'ri tashkil qilishda muhim uslubiy omildir. U prognozlash usullari sifatida ekspert baholash (mutaxassislarning tajribaga asoslangan fikrlari), ekstrapolyatsiya (ma'lumotlardagi tendensiyalarni davom ettirish), deterministik munosabatlarni bashorat qilish (ko'rsatkichlar orasidagi matematik bog'lanishlarni aniqlash) usullaridan foydalanishni tavsiya qiladi.

O. Laenko shuningdek, korxonada asosiy rejalashtirish vazifalari sifatida resurslardan oqilona foydalanish orqali rentabellikni ta'minlash, joriy va investitsiya faoliyati uchun mablag'larga ehtiyojni aniqlash, likvidlikni qo'llab-quvvatlash uchun kiruvchi va chiquvchi oqimlarni muvofiqlashtirish, qabul qilingan qarorlarning samaradorligi va xavflarini baholashni ko'rsatadi.

Uning fikricha, korxonalarda moliyaviy rejalashtirishni olti bosqichda amalga oshirish ijobiy natija beradi: tahlil, prognozlash, davrlashtirish, usullarni tanlash, hujjatlashtirish va monitoring. Shuningdek, u tizimli va ko'p bosqichli yondashuvni taklif qiladi. Rejalashtirish va prognozlashni bir vaqtda amalga oshirish, analitikdan matematikaga qadar turli usullardan foydalanish, prognozlashni mustaqil va muhim komponent sifatida qo'llash, ustuvor vazifalar sifatida rentabellik, likvidlik va riskni baholashni amalga oshirish, barcha bosqichlarda nazorat va moslashuvchanlikni ta'minlash hamda moliyaviy instrumentlar kombinatsiyasi va professional boshqaruvdan samarali foydalanish zarurligini ta'kidlaydi. Bunday yondashuv korxonada asosli, moslashuvchan va barqaror moliyaviy boshqaruv tizimini yaratishga imkon beradi⁵.

Moliyaviy rejalashtirishni korxonalarda amalga oshirish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar olib borgan yana bir guruh olimlardan Ye. Karpova va S. Kyaryakliev kabi mualliflarning ta'kidlashicha, moliyaviy rejalashtirish nazorat bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak. Bu jarayonlar moliyaviy boshqaruv doirasida yagona mexanizmni tashkil qiladi. Ular moliyaviy rejalashtirishni bosqichma-bosqich algoritmini aniqlab bergan bo'lib, u quyidagilardan iborat: ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish (moliyaviy holat, tashqi muhit), tahlilga asoslangan prognozlash, rejalarni davriylashtirish (operativ, joriy, strategik), hisoblash usullarini tanlash, hujjatlar – rejani tasdiqlash, bajarilishini nazorat qilish (rejalashtirilgan va haqiqiy natijalarni solishtirish, og'ishlarni tahlil qilish).

Shuningdek, ushbu mualliflar moliyaviy rejalashtirish jarayonida tizimning muvaffaqiyatli ishlashi uchun shartlarni ham keltirib o'tadilar. Ularning fikriga ko'ra, axborot shaffof bo'lishi, ya'ni ma'lumotlar aniq bo'lishi va jarayonning barcha ishtirokchilariga o'z vaqtida yetkazilishi zarur. Shuningdek, moliyaviy rejalashtirish va nazoratni alohida vazifalar sifatida emas, balki o'zaro bog'liq tizim sifatida ko'rish lozim.

Bundan tashqari, mualliflarning ilmiy g'oyasiga ko'ra, rejalashtirish asosni yaratadi (maqsadli ko'rsatkichlar, budjetlar, taxminlar), nazorat esa bu asosni amalga oshirishning sifatini ta'minlaydigan mexanizm hisoblanadi. Motivatsiya tizimni moslashuvchan va samarali qiladi, xodimlarni jalb qilishni rag'batlantiradi. Bo'limlarning integratsiyasi va axborot almashinuvi esa bunday tizimni joriy etishning kaliti hisoblanadi.

Nazariyadan amaliyotga o'tish uchun korxonada nazorat tizimiga sarmoya kiritishi, xodimlarni o'qitishi va tahliliy hamda nazorat tartib-qoidalari bilan qo'llab-quvvatlanadigan motivatsion siyosatni shakllantirishi lozim. Mualliflarning ta'kidlashicha, rejalashtirish jarayonida moliyaviy menejment rejalashtirish madaniyatini oshirishi, o'qitish va mas'uliyatni qo'llab-quvvatlashi zarur. Rag'batlantirish va sanksiyalar – bonuslar va mas'uliyatning uyg'unligi intizomni va diqqatni saqlashga xizmat qiladi.

Ularning tavsiyalariga ko'ra, mexanizm tahlili, prognoz, reja, hujjatlashtirish, nazorat va motivatsiyani o'z ichiga olgan tuzilmaviy va moslashtirilgan jarayon moliyaviy rejalashtirish hamda nazoratni resurslarni samarali

4 Лаенко О.А. Методы финансового планирования и прогнозирования на предприятиях // Вестник Прикамского социального института. 2016. С. 52-55.

5 Лаенко О.А. Методы финансового планирования и прогнозирования на предприятиях // Вестник Прикамского социального института. 2016. С. 52-55.



boshqarish, xavflarni kamaytirish va tashkilot samaradorligini oshirishga qodir bo'lgan dinamik, ishlaydigan tizimga aylantiradi⁶.

Yu. S. Nexaychuk va A. P. Borisovskaya kabi mualliflarning ta'rifiga ko'ra, "moliyaviy rejalashtirish – bu iqtisodiy faoliyatni ta'minlash uchun moliyaviy resurslar manbalarini va ulardan foydalanish yo'nalishlarini aniqlash usullari hamda vositalari majmuidir". Bundan tashqari, ushbu mualliflarning fikricha, moliyaviy rejalashtirish reaktiv bo'lmazligi, faqat mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lishi bilan cheklanmasligi kerak. Buning o'rniga, korxonalar hozir nima foyda keltirayotganini va keyingi 1-3 yil ichida nima olib kelishini hisobga olgan holda savdo rejalarini o'zgaruvchan iste'molchilar ehtiyojlari bilan bog'lash samaralidir⁷.

Shuningdek, mualliflar strategik moliyaviy rejalashtirishni uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishning bir turi sifatida ta'kidlaydilar. Sanoat korxonalari uchun quyidagilar ayniqsa muhim deb hisoblaydilar: tashqi qiyinchiliklarga chidamlilik (globallashuv, bozor beqarorligi), uzoq muddatli istiqbolda makro va indikativ moliyaviy ko'rsatkichlardan foydalanish (masalan, inflyatsiya). Nexaychuk va Borisovskayaning ilmiy yondashuviga ko'ra, moliyaviy rejalashtirishning reaktiv mexanizmidan ko'ra tuzilgan, strategik yo'naltirilgan, mijozlarga yo'naltirilgan va faol mexanizm bo'lishi lozim.

Moliyaviy rejalashtirish jarayonida nima va qachon pul olib kelishini aniq tushunish, rejalashtirish manbalari va moliyalashtirish yo'nalishlarini belgilash, talab va korxonalar strategiyasiga muvofiqligini ta'minlash muhimdir. Shuningdek, Nexaychuk va Borisovskayaning fikricha, moliyaviy rejalashtirish naqd pul oqimlariga qaratilgan, strukturaviy va uslubiy jihatdan qurilgan, bozor va mijozlarga yo'naltirilgan, barqaror hamda uzoq muddatli faoliyatga hissa qo'shadigan bo'lishi kerak. Shu bois moliyaviy rejalashtirish tahlildan nazoratgacha bo'lgan protsessual bosqichlarni o'z ichiga olishi, moliyaviy rejani faqat buxgalteriya hujjatidan iborat emas, balki strategik boshqaruv vositasiga aylantirishi zarur.

Rossiyalik iqtisodchi olimlardan biri o'zining "Korxonalarda rejalashtirish" darsligida rejalashtirishni maqsadlarni belgilash, maqsad va vositalarni aniqlash, ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish va ularga erishish yo'llarini ishlab chiqish jarayoni sifatida talqin qiladi. V. Yankovskayaning fikricha, "moliyaviy rejalashtirish jarayoni – bu murakkablik, motivatsiya, prognozlash, xavfsizlik, muvofiqashtirish, nazorat va o'qitishga qaratilgan tizimli boshqaruv funksiyasidan iborat bo'lib, moliyaviy rejalashtirish – moliyaviy resurslar va pul oqimlarini tashkil etish bo'yicha kelajakdagi harakatlarni aniqlash jarayoni hisoblanadi"⁸.

O'z navbatida, professorlar T. Malikov va O. Olimjonovlar "Moliyaviy rejalashtirish" tushunchasini taraqqiyotning asosiy tendensiyalarini aniqlash va moliyaviy tahlil qilish, jalb qilingan mablag'lar hamda vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni sarflash (joylashtirish) menejmenti, firma ichidagi moliyaviy natijalar va pul oqimlarini rejalashtirish, hisobga olish va nazorat qilish texnologiyasi, investitsion menejment, kapitallar menejmenti, shuningdek faoliyatning boshqa ko'rinishlari (trast, faktoring, lizing va boshqalar)ning jamlanmasi sifatida izohlaydilar.

Professor S. Elmiraev esa o'zining "Korporativ moliya" darsligida quyidagicha ta'rif beradi: "Moliyaviy rejalashtirish korporativ moliyani boshqarish tizimining ajralmas qismi sifatida korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga doir qaror qabul qilish asoslarini ta'minlaydi. Moliyaviy rejalashtirishning korxonalar faoliyati uchun alohida dolzarbligi shundaki, u keskin raqobat sharoitida uzluksiz rivojlanish yo'lini belgilab beradi. Moliyaviy rejalashtirishning noto'g'ri tashkil etilishi bir tomondan bozorning ma'lum bir mahsulotga nisbatan to'yinishi, ikkinchi tomondan esa boshqa bir mahsulotga nisbatan taqchillikning yuzaga kelishiga olib keladi. Natijada esa bozor muvozanati buziladi", – deya ta'kidlaydi. U o'z ilmiy tadqiqotlarida korxonalarda moliyaviy rejalashtirishni soliqlarni rejalashtirish jarayoni bilan birga ko'rib chiqib, uni to'g'ri amalga oshirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqan⁹.

Mahalliy olimlardan X. Axmedov korxonalarda moliyaviy rejalashtirish masalasini alohida mavzu doirasida dissertatsion tadqiqot sifatida o'rgangan. Uning ta'rifiga ko'ra, "moliyaviy rejalashtirish – xo'jalik subyekti faoliyatida samaradorlik va uzviylikka erishish maqsadida moliyaviy risklarni hisobga olgan holda pul oqimlari harakatini tashkil etish, moliyaviy resurslarni shakllantirish va taqsimlashga qaratilgan rejalashtirishning alohida muhim yo'nalishidir". Olimning fikricha, moliyaviy rejalashtirishning bosh maqsadi – moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali moliyaviy ko'rsatkichlar o'sishini ta'minlashdir.¹⁰

6 Карлова Е. Н., Кряклиев С. В. Механизм реализации системы финансового планирования и контроля на предприятии // Символ науки. 2016. № 5. С. 125-129.

7 Нехайчук Ю. С., Борисовская А. П. Об организации финансового планирования на промышленном предприятии // Символ науки. 2016. № 9. С. 117-121.

8 Янковская В. В. Планирование на предприятии: Учебник / В. В. Янковская. – М.: НИЦ ИНФРА-М, 2013. – 425 с.

9 Elmiraev S. Korporativ moliya. Darslik. – T.: 2018 yil, 68 bet.

10 Axmedov Xasan Ruziabaevich Xujalik subyektlarida moliyaviy rejalashtirishni tashkil etishni takomillashtirish iynalishlari. 08.00.07 – Moлия, pul muomalasi va kredit iqtisodiyot fanlari buyicha falsofa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOPEFERATI. Toshkent-2019, 63 b.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy rejani tuzishdan tortib to uning amalga oshirilishini nazorat qilish, fikrimizcha, yetti bosqichdan iborat mexanizm asosida amalga oshirilishi kerak. Jumladan, joriy moliyaviy holatni tahlil qilish dastlabki bosqichda daromadlar, xarajatlar, aktivlar va majburiyatlarni baholash, likvidlik, rentabellik, aylanma va qarzlarni tahlil qilish, korxonada moliyasining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashni o'z ichiga oladi. Keyingi bosqich — rejalashtirish maqsadlarini belgilash bosqichida umumiy (masalan, daromadni yiliga 15% ga oshirish) va maxsus (masalan, soliq yukini kamaytirish, investitsiyalarni ko'paytirish, xarajatlarni qisqartirish) maqsadlar belgilanadi.

Moliyaviy ko'rsatkichlarni prognozlash bosqichida daromad, tannarx, foyda prognoz qilinadi, pul oqimi prognozi amalga oshiriladi, soliqlar, amortizatsiya va kreditlar bo'yicha prognozlar ishlab chiqiladi. Keyingi bosqich — moliyaviy rejani ishlab chiqish bosqichi bo'lib, unda asosiy rejalashtirish hujjatlari tuziladi: daromad va xarajatlar budjeti, pul oqimi budjeti, investitsiyalar va kapital xarajatlar rejasi, shuningdek soliq rejasi shakllantiriladi.

Moliyalashtirish manbalarini tanlash bosqichida moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyoj (kapital yoki qarz mablag'lari) aniqlanadi, kapital qiymati baholanadi. Rejani tasdiqlash va amalga oshirish bosqichida esa rejani rahbariyat tomonidan tasdiqlash, amalga oshirish uchun mas'ul shaxslarni belgilash, rejani korxonada faoliyatida amaliyotga joriy qilish ko'zda tutiladi.

Yakuniy bosqich — amalga oshirish monitoringi va nazorati bosqichida rejalashtirilgan va haqiqiy ko'rsatkichlar taqqoslanadi, orqada qolish sabablari tahlil qilinadi, zarurat tug'ilganda rejaga o'zgartirishlar kiritiladi hamda yakuniy xulosalar tayyorlanadi. Ushbu xulosalar esa korxonada moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Маликов Т.С., Олимжонов О.О. Молия. Дарслик / Тошкент Молия институти. – Тошкент: 2019. – 89 бет.
2. Elmirezayev S. Korporativ moliya. Darslik. – T.: 2018 yil, 68 bet.
3. Вишар С. П. Современные проблемы финансового планирования предприятий системы потребительской кооперации в России // Символ науки. 2016. № 6. С. 160-163.
4. Демин С. С., Зинченко А. С., Черкасов М. Н. Особенности финансового планирования производственных процессов на предприятиях машиностроения // Вестник университета. 2016. № 5. С. 130-132.
5. Зайцева И.С. Роль финансового планирования в формировании финансовой политики корпорации // Политика, экономика и инновации. 2016. № 8 (10). С. 1- 4.
6. Лаенко О.А. Методы финансового планирования и прогнозирования на предприятиях // Вестник Прикамского социального института. 2016. С. 52-55.
7. Нехайчук Ю. С., Борисовская А. П. Об организации финансового планирования на промышленном предприятии // Символ науки. 2016. № 9. С. 117-121
8. Янковская В. В. Планирование на предприятии: Учебник / В. В. Янковская. – М.: НИЦ ИНФРА-М, 2013. – 425 с.
9. Казмина И. В., Смолянинова И. В., Щеголева Т. В. Символ науки. 2016. № 4. С. 83–84.

muhandislik **& iqtisodiyot**

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. May. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100